

## MAISHIY ELEKTR TEXNIKA JIHOZLARI VA ULARNING ISHLATILISHI

**Kengashev G'ayrat Mardiyevich**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan*

*1-son kasb-hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada biz kundalik hayotda ishlatadigan maishiy elektr jihozlari, ularning ishlash rejimlari va ahamiyati, shuningdek bu elektr asboblari bilan ishlaganda, yoki ularni ta'mirlashda amal qilinishi kerak bo'lgan xavfsizlik qoidalariga to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *maishiy texnika, elektr, jihoz, tok, xavfsizlik, sovutgich, dazmol, rejim, ta'mirlash, uy xo'jaligi, asbob, texnika.*

Turmushni elektrlashtirish uy xo'jaligini o'zgartirib yuboradi, uy mehnati unumdorligini oshiradi, uy-joyning sanitariya-gigiena sharoitlarini yaxshilaydi. Turmushda zamonaviy mashinalar va asboblardan foydalanish aholi bo'sh vaqtining ko'payishiga imkoniyat yaratadi.

Aholining madaniy-ro'zg'or va xo'jalik ishlariga moljallangan buyumlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish maqsadida ularning assortimenti kengaytirilmoqda. Uy xo'jaligini yuritish uslubini o'zgartirishning asosiy yo'nalishi xizmat ko'rsatish korxonalarining ishini kengaytirish va yaxshilash hisobiga xizmat ko'rsatishdir. Shuningdek, aholining o'zida bo'lgan yoki ijaraga olingan uy-ro'zg'or asboblari va mashinalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitlarda uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash xizmatining roli ancha yuqori bo'ladi.

Uy-ro'zg'or mashinalari va asboblari majmuining doimo yangilanib turishi, ular konstruksiyalarining murakkablashuvi va vazifasi bo'yicha turli-tumanligi uy-ro'zg'or texnikasiga xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi xodimlarining texnik bilimini muttasil takomillashtirib borish zarurligini taqozo etadi.

Aholining uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash xizmatiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, mehnat unumdorligini oshirish va ta'mirlash ishlari sifatini yaxshilash uchun uy-ro'zg'or asboblari va mashinalarini ta'mirlashning ratsional texnologik protsesslari, zamonaviy asbob-uskunalar, mexanizatsiyalashtirish vositalari, nazorat-o'lchash apparatlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda zamonaviy ishlab chiqarish ob'ektlari va uy ro'zg'or xo'jaliklari yirik elektr energiya iste'molchisi bo'lib qolmoqda, unga 30 % ga yaqin elektr energiyasi to'g'ri keladi. Elektr jihozlari va asboblari yoritish, ovqat pishirish, suv qaynatish, binolarni isitish, turli elektr maishiy mashinalarida ishlatilmoqda. Ular aholi turar joy binolarida, oshxonalar, bolalar bog'chasi, klublar, magazinlar, pochta bo'limlarida, shifoxonalarda ishlab turibdi.

Elektr maishiy jihozlarning ta'miri bilan elektr maishiy xizmat ko'rsatish ustaxonalari shug'ullanadi. Ular aholidan tushgan buyurtmalar bo'yicha xonadonlarda o'rnatilgan joyda ta'mir tadbirlarini bajaradilar. Bugungi kunda elektr maishiy jihozlarning nomenklaturasining ko'payishi bilan ularga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida profilaktik xizmat ko'rsatish joriy etilmoqda. Bunda qimmatbaho jihozlarning nosoz elementlarini almashtirib yoki tuzatib ishonchli soz ishlash muddatlarini oshirish mumkin, ulardan samaraliroq foydalanish mumkin.

Ta'mir bazalari barcha elektr maishiy jihozlar uchun ehtiyot qismlar zaxirasiga ega bo'lish kerak. Elektr maishiy jihozlarga abonentli profilaktik xizmat ko'rsatish tizimi 2 xil tadbirlarni o'z ichiga oladi: texnik xizmat ko'rsatish (ko'rik, rostlash, moylash, diagnostika), nosozliklarini topish, yeyilayotgan detallarni almashtirish, ishdan chiqqan detal va qismlarni tuzatish va almashtirish.

Maishiy texnika - bu odamlarning uyda ishlatadigan jihozlari bo'lib, unda asosan oshxona jihozlari asosiy rolni egallaydi. Bular asosan sovutgich, gaz plitasi, elektr pechka, mikroto'lqinli pech, elektr qozon, elektr choynak(tefal), sharbat chiqargich va boshqalar.

Sovutgichlar mahsulot va oziq ovqatlarni saqlash uchun uyda va ma'lum kerakli joylarda ishlatiladigan, hajmi 60-dan 500 dm<sup>3</sup> gacha bo'lgan bir va ikki kamerali kompression va absorbtсион tipdagi sovutgichlarga bo'linadi.

Sovutgichlar sovutish usuli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- K-kompression, A - absorbtсион,
- o'rnatish usuli bo'yicha: SH - polga o'rnatiladigan stol ko'rinishida, S - polga o'rnatiladigan shkaf ko'rinishidagi, N - devorga o'rnatiladigan, V blokli o'rnatiladigan;
- komfortlilik jihatidan: odatdagi, P - yuqori komfortli, kameralarni soni bo'yicha, bir kamerali, D - ikki kamerali.

Sovutgichlar 220 yoki 127 V nominal kuchlanishga mo'ljallab ishlab chiqariladi. Sovutgichlarning tashqi konturidan 1 m masofadagi shovqinning balandlik darajasi 42 dBA dan ortiq bo'lmasligi kerak. Termoregulyator dastasi pozitsiyalaridan biriga o'rnatilganda sovutish kamerasidagi o'rtacha harorat sovutgichning iqlimiga moslab bajarilishi quyidagi qiymatlarga (-6,-12,-18 °C) muvofiq bo'lishi kerak.

Biz kundalik turmushda ishlatadigan maishiy texnika jihozlalridan biri bu elektr dazmoldir. Maishiy elektr dazmollari quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- UT-issiqlik regulyatori;
- UTP-issiqlik regulyatori va bug' bilan namlagichli;
- UTAR-issiqlik regulyatori bug' bilan namlagichli va suv purkagichlar;
- UTR-issiqlik regulyator og'ishtirilgan.

Elektr dazmollash shartlari va bug'lanish rejalari ko'rsatilgan bo'ladi. UTP va UTPR tipidagi elektr dazmollar uchun harorat ko'rsatkichi dazmollash sharti sim valning markazi ruchkasiga qo'yilganda barqaror issiqlik rejimida elektr dazmol toshning markazidan o'rtacha harorat 60-70 °C bo'lishi kerak.

Elektr dazmolning toshi bir tekis qizishi kerak, taglik o'rtacha harorati bilan taglik markazidagi o'rtacha harorat yo'li bilan 10 °C ga farq qilishi kerak. UTP va UTPR tipidagi elektr dazmollardagi suv zonasi kamida 1:5 minut davomida bug' chiqarib turishni ta'minlaydi. Bug'lanishi intensivligi kamida 8g/minut bo'lishi zarur. UTPR tipidagi elektr dazmol sav purkagich mexanizmi uch marta bosilganda kamida 200 sm<sup>2</sup> yuzani namlashi kerak.

Dazmollarda parlab joylashgan ajralmaydigan vilka bilan 2m uzunlikdagi ulash shnuri bo'ladi. Suv sohadigan idishlari bosim ostida ishlaydigan UTP va UTPR tipidagi elektr dazmollarda saqlagich qurilmalariga ega bo'lishi kerak. Bu qurilmalar ko'pi bilan 5\*10<sup>4</sup> Pa ortiqcha bosimga mo'ljallab sozlab qo'yilgan.

Uy - ro'zg'or elektr asboblari bilan ishlaganda, yoki ularni ta'mirlashda quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur:

- sxema simlarining uchlari faqat ulash uchun zarur bo'lgan uzunlikda tozalanadi. Sim uchlari tasodifan ajralib ketmasligi yoki kontaktlar kuymasligi uchun simlar ishonchli ulanishi kerak.

- istalgan sxemani ulashdan oldin uni oldindan o'rganish kerak va ayniqsa, kuchlanishi 36 V dan yuqori zanjirlarni yaxshi bilish kerak.

- yig'ilgan sxema, elektr apparaturalar va elektr qurilmalarni ta'minlash manbayiga tok hamda kuchlanish bo'yicha muvofiq me'yorlangan suyuqlanma-quymali saqlagichlar orqali ulash kerak.

- sxemalar, to'g'rilovchi bloklar va boshqa elektr zanjirlarda kuchlanish bor-yo'qligini kuchlanish ko'rsatkichlari, voltmetrlar yoki maxsus shchuplar yordamida tekshirish zarur.

- Kuchlanish bor-yo'qligini uchqun chiqarib yoki ushlab ko'rib tekshirish qat'iy man etiladi. Baxtsiz hodisalar yuz bermasligi uchun ish jarayonida kavsharlagichni silkitish man etiladi.

- Ish qisqa muddatga to'xtatilganda yoki biror joyga ketganda sxema va barcha asboblarni tarmoqdan ajratish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maishiy elektr texnika jihozlariga biz kundalik turmushda murojaat qilamiz. Ushbu elektr texnikalarining tuzilishi va ishlash prinsipini bilish, ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish foydadan holi bo'lmaydi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.T. Turdiyev. Elektrotexnika va elektronika asoslari. T., O'qituvchi. 2014
2. Rahimov G. R. Elektrotexnika. T., „O'qituvchi“, 1966.
3. Pravila ustroystva elektrotexnicheskix ustanovok (PUE) M. Energiya -1990
4. Pravila texnicheskoy ekspluatatsii bezopasnosti obslujivaniya promoishlennix ustanovok. M. Energiya, 1990 g
5. M.M. Katsman. Elektricheskie mashino` izdanie vtoroe pererabotannoe i dopolnennoe M.M «Visshaya shkola» 1990 g